

**O'SMIRLARNI AXBOROT HURUJIDAN HIMOYALASHDA
AXBOROT OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI**

Raimjonova Xurshidabonu G'ofurjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot xurujlarining yosh avlod, ayniqsa o'smirlar va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Ma'kuraviy hamda siyosiy ziddiyatlar, shuningdek ommaviy madaniyat unsurlari axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axborot-psixologik xavfsizlik masalasini ilmiy jihatdan o'rgangan mutaxassislarning tadqiqotlariga e'tibor qaratilgan. Maqolada o'smirlik davrida axborotdan foydalanish madaniyatini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

Annotation: This paper examines the negative influence of information attacks on the younger generation, particularly adolescents, and their impact on society. It highlights the findings of scholars who have explored the concept of information and psychological security. Furthermore, the article analyzes the psychological dimensions of developing information awareness and media literacy during adolescence.

Kalit so'zlar: axborot, o'smirlik davri, axborot-psixologik xavfsizlik, milliy axborot siyosati, axborot olish madaniyati

Key words: Information, adolescence, information security, national information policy, information culture.

KIRISH

Insoniyat jamiyati vujudga kelgan ilk davrlardan oq odamlar axborot olish, uni boshqalar bilan bo'lishish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib kelgan. Dastlab bu jarayon sodda shaklda kechgan bo'lsa-da, jamiyat taraqqiyoti bilan birga axborotning ahamiyati ortib, u tobora murakkab tus ola boshladi. Shu bois bugungi

davr “Axborot texnologiyalari asri” deb atalishi bejiz emas. Hozirgi kunda mamlakatimizda axborot sohasi bosqichma-bosqich isloh qilinmoqda. Davlat rahbarimiz ta’kidlaganidek, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash — insonning axborot olish, uni tarqatish hamda shaxsiy fikrini erkin ifoda etish huquqini o’zida mujassam etadi. Bu esa, demokratik jamiyat asoslarini yaratishda muhim omil, hatto, uning poydevori sifatida qaraladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi “Axborot asri” deb ataluvchi davrda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi roli tobora ortib bormoqda. Internet, televidenie va radio kabi zamonaviy jurnalistika turlari ijtimoiy reklama tushunchasi orqali keng ommalashib, o’smir yoshlarning turli masalalarga nisbatan qarashlari va dunyoqarashini shakllantirishda, shuningdek, ularning tarbiyasida beqiyos o’rin tutmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar va ularning kelajagiga e’tibor doimo dolzarb masala bo’lib kelgan. Shu bois barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan qonun va farmonlarda o’smirlar, ularning muammolari hamda ularning barkamol hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalari o’z aksini topmoqda. Yoshlar siyosatini takomillashtirishda axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash va yot g’oyalarga qarshi kurashish muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiyada ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilib, ishtirokchi davlatlar tomonidan yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy va mehnat sohalarida qo’llab-quvvatlash bo’yicha huquqiy va tashkiliy choralar ko’rilishi belgilangan. Yoshlar siyosati doirasida ularni psixologik jihatdan qo’llab-quvvatlash, mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash — kelajakda yoshlarning munosib hayot kechirishlari uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish orqali o’smir shaxsiga ijobiy ta’sir ko’rsatish, shu jarayonda zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Axborot tushunchasiga esa

quyidagicha ta'rif berish mumkin: **axborot — bu manba va shaklidan qat'i nazar, shaxslar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar majmuidir.**

Yosh avlodni barkamol, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunda eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jarayonda turli yot g'oyalar va tahdidlarning oldini olish, shaxs ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborotlarning xavf omillarini anglash, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish hamda o'smirlilik davrida axborot olish madaniyatini rivojlantirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu bilan bir qatorda, axborot-psixologik xavfsizlik immunitetini mustahkamlash ham zamonaviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Bugungi mafkuraviy va siyosiy ziddiyatlar ko'lami kengayib, yosh avlodni ham o'z ta'sir doirasiga tortmoqda. Turli siyosiy tuzilmalar yoki tashkilotlar davlatlar va jamiyatlar to'g'risida o'z manfaatlari yo'lida axborot vositalari orqali fikrni o'zgartirishga intilmoqda. Internetda keng tarqalayotgan ayrim videoo'yinlar, filmlar va multfilmlarda bosh qahramonlar shafqatsiz, axloqsiz, agressiv obrazda tasvirlanishi o'smir ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola bunday qahramonni kuch, jasorat ramzi sifatida qabul qilib, uni taqlid qilishga, o'z harakatlarida o'xshashlik yaratishga harakat qiladi.

Axborot-psixologik xavfsizlik masalasi bugungi kunda faqat psixologiya doirasida emas, balki pedagogika, sotsiologiya, falsafa, axloqshunoslik, madaniyatshunoslik va dinshunoslik fanlari kesimida ham turlicha talqin qilinmoqda. Ushbu tushuncha o'z ildizlarini qadimiy manbalardan oladi. “Qur’oni karim”, “Hadis” ilmlari, “Avesto”, shuningdek, ajdodlarimiz Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Husayn Koshifiy, Bahouddin Naqshband kabi allomalarning ilmiy-falsafiy merosida axborot-psixologik xavfsizlikning mohiyati va ahamiyati chuqur ifoda etilgan.

Bugungi ochiq axborot tizimlari davrida axborot-psixologik xavfsizlik masalasi xorijda ham, mamlakatimizda ham turli yondashuvlar asosida

o'rganilmoqda. G'arb olimlari L. Terman, R. Veys, E. Tiyd, G. Roland, Y. Burgess, M. Odema va P. Boennanlar etnik munosabatlarning psixologik jihatlarini tahlil qilgan bo'lsalar, K. Yang, A. Goldberg, M. Griffist, R. Devis, J. Groxol, K. Surrat, P. Shumaxer hamda J. Moreyxen-Martinlar shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi muammosini o'rganib, "internetga qaramlik" tushunchasiga izoh berishgan.

Rus tadqiqotchilaridan A. Voysunskiy insonning internetdagi faoliyati va uning turli tarmoqlarga ta'sirini o'rgangan, O. Smislova esa xakkerlarning omma ongiga ta'sir mexanizmini tahlil qilgan. O. Babayeva esa "axborotlashuv jarayonining psixologik oqibatlarini"ni alohida ko'rib chiqqan. Ijtimoiy psixologiya sohasida esa G. Andreyeva, Y. Shoroxova va N. Bogomolova o'z tadqiqotlarida kichik guruhlarda psixologik xavfsizlik masalasiga e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonlik faylasuf, sotsiolog, pedagog va siyosatshunos olimlar — Q. Nazarov, V. Alimasov, J. Shermuhamedova, A. Erkayev, A. Mavrulov, A. Mo'minov, G. Tulenova, O. Abbosxo'jayev, B. Axmedov, R. Qo'chqorov, A. Tashanov, S. Mamashokirov, N. Saliyeva, R. Jo'rayev, O. Musurmonova, U. Mahkamova, Sh. Qurbonov, D. Ro'ziyev, B. Xodjayevlar ilmiy izlanishlarida milliy qadriyatlar shakllanishi, milliy ong va vatanparvarlik tuyg'usining rivoji, shuningdek "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri haqida fikr yuritganlar.

Hozirgi kunda o'smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlik masalasini o'rganish yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish hamda ularni ommaviy madaniyat ta'siridan himoya qilishning muhim yo'nalishiga aylangan. Shu bilan birga, internetga qaramlik, ommaviy axborot vositalarining shaxs xulq-atvoriga ta'siri kabi masalalar yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda o'tkazilgan o'smirlar orasida kompyuter o'yinlariga qaramlikni o'rganishga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'rovda qatnashganlarning 46 foizi psixologik yetuklikning past darajasiga ega bo'lsa, 15 foizi yuqori darajani namoyish etgan. Suhbatlar jarayonida esa o'smirlar o'yinning o'zidan ko'ra tengdoshlar orasidagi obro'-e'tibor ularning motivatsiyasida muhim rol o'ynashini ta'kidlashgan.

Bugungi kunda axborot xurujlarining xilma-xilligini inobatga olib, ularni tizimli tarzda tahlil qilish hamda yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ochiq axborot tizimlarining turli mamlakatlarga ko'rsatayotgan ta'siri bir xil emas. Buning sababi har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, axborot salohiyati, ma'naviy qadriyatlari va siyosiy yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq. Mamlakatimiz aholisi tarkibida yoshlarning 60 foizni tashkil etishini hisobga olsak, bu masalaning dolzarbligini anglash qiyin emas.

Jahonda kechayotgan tezkor jarayonlar har bir davlatga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bois bu jarayonlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va ijobiy jihatlarini kuchaytirish uchun ularning mohiyatini chuqur anglash hamda ta'sir mexanizmlarini tahlil etish zarur. Bu esa jamiyatdagi xulq-atvor o'zgarishlari ko'pincha axborot oqimlari ta'sirida shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish nuqtayi nazaridan quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O'smirning faoliyat turlari orasida yetakchi yo'nalish;
2. Har bir o'smirning hissiy-irodaviy va ruhiy holatlari;
3. O'smirlarning intellektual rivojlanish darajasi;
4. Jamiyatda mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhitning ta'siri.

Axborot bugungi kunda mafkuraviy, iqtisodiy, etnik va diniy chegaralardan chiqib, ko'p qirrali ta'sir kuchiga ega siyosiy vositaga aylandi. U global miqyosda ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan, ommaboplikni qo'llab-quvvatlovchi va turli maqsadlarda foydalaniladigan siyosiy lashtirilgan axborot hujumlarining asosiy shakliga aylangan.

XULOSA

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot orqali ta'sir ko'rsatish o'ziga xos ilmiy konsepsiyaga ega bo'lib, bunda "shaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi" hamda "tahdidlarni aniqlash va ularga javob qaytarish" konsepsiyalariga tayaniladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari global axborot maydoniga faol kirib borayotgan, dunyo yangiliklariga qiziqish bilan yondashayotgan bir davrda, ularning ong va tafakkuriga ta'sir o'tkazuvchi turli g'oyaviy oqimlar kurashi kuchaymoqda. Shunday sharoitda yosh avlodni insonparvarlik, milliy va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik hamda sof islomiy tafakkur ruhida tarbiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Axborot orqali ta'sir ko'rsatishning shakllari turlicha bo'lib, ularning asosiylari sifatida strategik, tezkor va taktik turlarni ajratish mumkin. Ular maqsad va vazifa jihatidan bir-biridan farqlanadi. Mazkur tahdidlar siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ekologik, harbiy yoki ijtimoiy-demografik yo'nalishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

O'smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlarini quyidagi jihatlar orqali baholash maqsadga muvofiqdir:

- O'smir shaxsining egiluvchan, o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lishi sababli, uning xulq-atvorini muntazam nazorat qilish zarur;
- O'smir psixologik inqirozning eng faol davrini boshdan kechiradi va bu holatda atrofdagilarning qo'llab-quvvatloviga ehtiyoj sezadi;
- “Real men” va “ideal men” o'rtasidagi tafovut o'smirda ichki ziddiyatni kuchaytiradi;
- Jinsiy yetilish va gormonal o'zgarishlar psixologik tanglik holatlarini keltirib chiqaradi;
- Maqsad qo'yish va qadriyatlarga yo'naltirilish jarayonida o'zgarishlarni qabul qilishda muammolar kuzatiladi.

Shu jihatlar o'smir shaxsining axborot oqimlariga nisbatan himoyasini kuchaytirish, psixologik barqarorlikni shakllantirish hamda sog'lom axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Saliyeva, N. (2020). *Axborot makonida shaxs psixologiyasi*. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2021). *Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida*. Toshkent.
3. Umarov, B., Qodirov, U., & Karimov, X. (2012). *Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik: Darslik*. Toshkent: Axborot texnologiyalari nashriyoti.
4. *Axborot madaniyati*. (Maruza matni). (n.d.). Toshkent: Oliy ta'lim tizimi.
5. Boennan, P., & Burgess, Y. (2020). *Psychological resilience and information security in adolescence*. London: Routledge.
6. Smislova, O. (2018). *Psychological effects of information overload on youth behavior*. Moscow: Russian Academy of Sciences.
7. Sharopova, S. (2020). *Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Monografiya*. Guliston: GulDU nashriyoti.